



JAHON IQTISODIYOTIDA LOGISTIKANING O'RNI VA XALQARO HAMKORLIK

To'xtapo'latova Ulug'oy

Navoiy davlat universiteti talabasi

Bo'riyeva Feruza

Navoiy davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jahon iqtisodiyotida logistikaning tutgan o'rnini, uning globallashtirish jarayonlaridagi ahamiyati hamda global qiymat zanjirlaridagi roli tahlil qilinadi. Xususan, logistika tizimlarining savdo samaradorligiga, iqtisodiy o'sishga va raqobatbardoshlikka ta'siri ilmiy asosda yoritilgan. Mamlakatlar o'rtasidagi tafovutlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, xalqaro hamkorlik, raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali logistika tizimlarini rivojlantirish yo'nalishlari tahlil etilgan. Maqola yakunida rivojlanayotgan mamlakatlar uchun logistika infratuzilmasini takomillashtirish va global iqtisodiyotga integratsiyalashuv bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: logistika, global iqtisodiyot, xalqaro hamkorlik, ta'minot zanjirlari.

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyoti jadal ravishda globallashtirish jarayonini boshdan kechirmoqda. Bu globallashtirishning markaziy o'rinlardan birini albatta logistika egalladi. Bugungi kunda global qiymat zanjirlari xalqaro savdoning taxminan 70 foizini tashkil etadi va bu yerda xom ashyo, qismlar va xizmatlar bir nechta davlatlar chegaralarini bir necha marta kesib o'tadi. Logistika nafaqat yuk tashish, balki savdo xarajatlarini kamaytirish, yetkazib berish, tezligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vositasidir. Jahon iqtisodiy forumi ma'lumotlariga ko'ra, logistika endi oddiy yordamchi funktsiya emas, balki o'sish strategiyasining asosiy omiliga aylangan. Logistika tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lib, dastlab harbiy sohada qo'llanilgan, keyin esa iqtisodiyotga o'tgan. Zamonaviy logistika ta'minot zanjirlarini boshqarishni o'z ichiga oladi: rejalashtirish, sotib olish, saqlash, transport va yetkazib berish. Globallashtirish logistika xizmatlarini boshqa xizmatlar va ishlab chiqarish bilan uzviy integratsiyalashga olib keldi. Jahon bankining Logistika samaradorligi indeksi logistika tizimlarini baholashning asosiy vositasi hisoblanadi. 2025 yilda taqdim etilgan LPI 2.0 modeli an'anaviy so'rovnomalardan farqli o'laroq, katta ma'lumotlar asosida ishlaydi va yetkazib berish tezligi, ishonchliligi hamda bog'lanish darajasini o'lchaydi. LPI 2.0 natijalari yuqori daromadli va past daromadli mamlakatlar o'rtasidagi



bog‘lanish farqlarini, chegara va tranzit jarayonlaridagi vaqt yo‘qotishlarini hamda portlarda yuqori noaniqlikni ko‘rsatmoqda.

Jahon iqtisodiyotida logistika global savdoni rag‘batlantiradi va iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi. 2025-yilda global logistika bozori hajmi taxminan 5,9–11,23 trillion AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lib, 2034 yilga borib 8,2–23,14 trillion dollarga yetishi kutilmoqda. AQShda logistika xarajatlari 2024 yilda 2,6 trillion dollarni (AQSH YaIMisining 8,7 %) tashkil etgan. Butun dunyoda E-commerce rivojlanishi yetkazib berishni samarali qilmoqda va havo yuk tashish talabini oshirmoqda. Logistika infratuzilmasi qay darajada sifatli bo‘lsa u shunchalik savdo hajmini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, logistika samaradorligining o‘sishi iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, yetkazib berish vaqtini qisqartirish esa narxlarni pasaytiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi. Global qiymat zanjirlari doirasida logistika xarajatlari pasayganda, rivojlanayotgan mamlakatlar eksport imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xalqaro hamkorlik logistika samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. 2022 yilda AQSh va 18 ta hamkor mamlakat tomonidan imzolangan “Global ta‘minot zanjirlari bo‘yicha hamkorlik bo‘yicha birgalikdagi bayonot” transport va logistika uzilishlarini bartaraf etishni maqsad qilgan. Jahon Savdo Tashkiloti doirasida logistika xizmatlari (yuk tashish, saqlash, agentlik xizmatlari) bo‘yicha kelishuvlar taklif qilinmoqda. OECD ma‘lumotlariga ko‘ra, global qiymat zanjirlari savdoning 70 % ini tashkil etgani sababli, savdo siyosati butun zanjirni qamrab olishi kerak. Jahon banki LPI indeksi mamlakatlarga o‘z logistika tizimlarini xalqaro standartlar bilan solishtirish imkonini beradi va islohotlarni ustuvorlashtiradi. Mintaqaviy savdo shartnomalari (USMCA, RCEP) ham logistika xarajatlarini kamaytiradi va chegaralardagi jarayonlarni soddalashtiradi. Xitoyning “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi kabi loyihalar infratuzilmani rivojlantirish orqali xalqaro hamkorlikni kuchaytirmoqda.

Xalqaro logistikani rivojlantirishdagi asosiy muammolar bular geosiyosiy mojarolar (Qizil dengiz, Panama kanali), pandemiya ta‘siri va iqlim o‘zgarishi hisoblanadi. 2026 yilda logistika bozorini texnologiyalar (AI, avtomatlashtirish), ekologik, ijtimoiy va boshqaruv standartlari va xarajatlar optimizatsiyasi shakllantiradi. LPI 2.0 ma‘lumotlari past daromadli mamlakatlarda bog‘lanish bo‘shliqlarini ta‘kidlaydi. Ammo kelajakda logistikada raqamli logistika, yashil logistika va sun‘iy intellekt asosidagi prognozlashga doir logistika tez va kuchli rivojlanadi. Hozirgi kunda 93 % kompaniyalar avtomatlashtirishni joriy etishni rejalashtirmoqda. Xalqaro hamkorlik kuchayishi bilan bu muammolar bartaraf etilishi mumkin. Jahon iqtisodiyotida logistika o‘sishning strategik omili bo‘lib, xalqaro hamkorlik



uning samaradorligini oshiradi. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun infratuzilmani yaxshilash, raqamli transformatsiyani joriy etish va xalqaro shartnomalarga faol qo‘shilish muhimdir. Kelajakda barqaror va raqamli logistika global iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi globallashuv bosqichida logistika jahon iqtisodiyotining “yashirin infratuzilmasi”dan strategik ustunlik manbaiga aylandi. Jahon iqtisodiyotida logistikani rivojlantirish uchun rivojlanayotgan mamlakatlar uchun transport yo‘llari, logistika markazlari va ombor tizimlarini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish ustuvor vazifa bo‘lishi zarur. Bu global qiymat zanjirlariga integratsiyani tezlashtiradi. Bundan tashqari, elektron hujjat aylanishi, “aqlli logistika”, blokcheyn va sun’iy intellekt asosidagi boshqaruv tizimlarini keng joriy etish orqali logistika samaradorligini oshirish mumkin. Bu bojxona jarayonlarini tezlashtiradi va shaffoflikni ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Economic Forum. (2026). Logistics has become a strategic enabler of growth. <https://www.weforum.org/stories/2026/01/logistics-viewed-today-no-longer-support-function-but-strategic-enabler-of-growth/>
2. IMARC Group. (2026). Global Logistics Market to Grow at 3.71% During 2026-2034.
3. World Bank. (2025). Connecting to Compete 2025: Logistics Performance Index 2.0. <https://lpi.worldbank.org/>
4. OECD. Global value and supply chains. <https://www.oecd.org/en/topics/policy-issues/global-value-and-supply-chains.html>
5. Precedence Research. (2025). Logistics Market Size Worth USD 23.14 Trillion by 2034.
6. Council of Supply Chain Management Professionals. (2025). State of Logistics Report.
7. Kulanova, D.A. (2024). Xalqaro logistika muammolari va yechimlariga ilmiy yondoshuvlar. CyberLeninka.